

O'qitiladigan fanlar

Bakalavriyat bosqichida

№ Fanning nomi	Fan xaqida qisqacha ma`lumot
1 Tuproqshunoslik va dehqonchilik .	<p>Fanning maqsadi: talabalarda tuproq hosil bo`lish jarayoni, tuproqlarning tarqalishi, xususiyatlari, morfologik belgilari, tuproq unumdorligini oshirish chora-tadbirlari va tuproqlarning sifatini baxolash ko`rsatkichlari, o`simliklarning yashash sharoitlari, dehqonchilik tizimi va qonunlari, qo`llaniladigan organik va mineral o`g'itlarning xossa va xususiyatlari, kimyoviy tarkibi hamda tuproqda kechadigan jarayonlarni o`rganish bo`yicha nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi: Tuproqshunoslik va dehqonchilikka oid mumtoz nazariy va amaliy tayanch tushunchalarni talabalar ongiga singdirish, O`zbekistonda tarqalgan tuproqlarning hosil bo`lishi, xossalari va ularni boshqarish, tuproq unumdorligini oshirish yo`llari, o`simlik mahsulotlari etishtirishda amalga oshiriladigan agrotexnologik jarayonlari haqida bilim berish.</p>
2 Atrof muhit biotexnologiyasi	<p>Fanning asosiy maqsadi - talabalarda tirik organizmlar, ularning organlari, to`qima, hujayra tuzilishi, funktsiyalari, kimyoviy tarkibi hamda ularda kechadigan jarayonlarni o`rganish, atrof muhit muhofazasi sohasidagi masalalarni echishda qo`llaniladigan biotexnologik usullarning amaliy va nazariy tomonlari tizimli ravishda ochib berish bo`yicha nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi - talabalarga:</p> <ul style="list-style-type: none"> - hayotning mohiyati, uning tuzilish darajalari, shakllari; - hayot rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini tadbiq qilish; - biologik qonuniyatlarni xalq xo`jaligining barcha tarmoqlariga tadbiq etish va eng avvalo ekologik muhitni saqlash, serhosil ekin navlari va chorva hayvon zotlarini yaratish hamda shu asosda inson farovonligini oshirish; - biotexnologiya usullarining mohiyatini o`rgatish, tabiiy xom ashyolar asosida biologik faol birikmalarni olish, ekologik sof texnologiyalarni qishloq xo`jalik ishlab chiqarishida qo`llash va ulardan insi turmushini yaxshilashdagi o`rnini o`rgatishdan iboratdir.
3 Tuproqshunoslik va o`simlikshunoslik	<p>Fanni o`qitishdan maqsad - qishloq xo`jalik texnikasi ta`lim sohasi talablari doirasida "Tuproqshunoslik va o`simlikshunoslik asoslari" fani talabalarga tuproqshunoslik va o`simlikshunoslik sohalaridagi bilimlarning nazariy va amaliy asoslari, tuproq hosil bo`lish jarayoni, tuproqning xossalari, tuproqlarning tarqalish qonuniyatlari va tasnifi, ularning ekologo-meliorativ holatini ifodalovchi ko`rsatkichlar, ularni yaxshilash chora-tadbirlari, Tuproqshunoslik qo`llaniladigan agrotexnologik jarayonlarni o`rgatish, ishlab chiqarish amaliyotiga tadbiq qilish, asosiy qishloq xo`jalik ekinlarini etishtirish texnologiyalari bo`yicha amaliy ko`nikmalarni qosil qilishning nazariy va amaliy tomonlarini o`rganishga yo`naltirish vazifasini bajaradi.</p>

- 4 Biologiya va mikrobiologiya
- Fanni o`qitishdan maqsad – talabalarni organizmlarning biologik qonuniyatlariga oid bilimlar bilan ta`minlash, fan respublikada qishloq xo`jalik ekinlaridan yuqori hosil olish, agrotexnologiya, o`simliklarni kasallik va zararkunandalardan himoya qilish, boshlang`ich man`ba, mikroorganizmlarning biologiyasi, morfologiyasi, fizologik va biokimyoviy xususiyatlari hamda ularning tabiatda tarqalish qonuniyatlari, mikroorganizmlarga tashqi muhit omillarining ta`siri, ulardagi moddlar almashinuvi, uglerod, azot, fosfor tabiatda yalanishida mikroorganizmlarning roli, qishloq xo`jaligi ekinlarini hosildorligini oshirish, ularni sifatini va ekologik tozligini yaxshilash, tabiatni ifloslantirishdan saqlash va agrar ishlab chiqarishning boshqa barcha tarmoqlarida bu usullarni qo`llash to`g`risidagi qo`llash bo`yicha ko`nikmalar hosil qilishdan iborat.
- Fanning vazifasi – talabalarni tirik materiyaning belgilari, organik dunyoning birligi va xilma-xilligi, yerda hayotning paydo bo`lishi va rivojlanish tarixi, mikroorganizmlarning morfologiyasi, tarqalishi, ko`payishi, oziqlanishi va klassifikatsiyasini, mikroorganizmlarga ta`sir qiluvchi tashqi muhit omillar, mikroorganizmlarni tabiatda moddlar almashinuvi jarayonidagi o`rni, ajratilgan o`simlik hujayra ajratilgan o`simlik xujayra va to`qimalarni o`stirish texnologiyasini qo`llash, o`simliklar hujayrasida hosil bo`ladigan moddlarni toza holda ajratib olish mikroorganizmlarga ta`sir qiluvchi tashqi muhit omillarini, mikrobiologiyada qo`llaniladigan sterillash usullarini, mikroorganizmlarni tabiiy substratlardan ajratib olish usullarini bilishi va ulardan foydalana olishi hamda ilmiy dunyo qarashlarini kengaytirishga yordam beradi.
- 5 Dehqonchilik va o'simlikshunoslik
- Fanni o`qitishdan maqsad – talabalarda o`simlik organlarining tuzilishi, yashash sharoitlari, o`simlik biologiyasi, o`simlik xususiyatlari va belgilari, tuproqqa ishlov berish, urug` va uni ekish, ogranik va mineral o`g`itlar, begona o`tlarga o`simlik kasalliklari va zararkunandalarga qarshi kurash kurash, o`simliklarni sug`orish, qishloq xo`jalik ekinlarini etishtirish agrotexnologiyasi, almashlab ekish bo`yicha bilim va ko`nikmasini hosil qilishdan iborat.
- Fanning vazifasi – nazariy bilimlar, amaliy ko`nikmalar, o`simliklarning hayotiy omillari va dehqonchilik qonunlari, almashlab ekishning ilmiy asoslari, tuproqqa asosiy, ekishdan oldin va keyin ishlov berish, urug` va uni ekish, parvarishlash, o`g`itlash, sug`orish, va begona o`tlar, kasallik va zararkunandalarga qarshi kurashishning zamonaviy deonhqchilik yutuqlarini ishlab chiqarishda qo`llay olish haqidagi uslubiy yondoshuv va ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.
- Fanning mazmuni.
- "Tuproqlar degradatsiyasi" fani orqali talabalar Respublikamizda kechayotgan degradatsiya jarayonlari, O`zbekiston tuproqlari va er resurslari, tuproq degradatsiyasi turlari va omillari, tuproqlarni mexanik buzilishi, tuproqlarni fizik degradatsiyasi, tuproqning kimyoviy degradatsiyasi, tuproqning ifloslanishè va detoksikatsiyasi, degradatsiyaga uchragan tuproqlarning biologik faolligi, eroziyasi, sho`rlanish, cho`llanish, iqlim o`zgarishi va tuproq degradatsiyasi, degradatsiyaga uchragan tuproqlarni monitoring qilishda masofaviy usullar va GAT texnologiyalari, O`zbekiston Respublikasi tuproqlaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilishga qarata ishlab chiqilgan qonuniy va me`yoriy huquqiy hujjatlar, genezisi, geografiyasi, evolyutsiyasi, ularning xossa xususiyatlari hamda kuchli antropogen omillar ta`sirida natijasida ularning o`zgarishlari to`g`risidagi ma`lumotlarni va ularni unumdorligini boshqarish to`g`risidagi ma`lumotlarni oladilar.
- 6 Tuproqlar degradatsiyasi

7	Tuproqshunoslik	<p>Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o`qitishdan maqsad - talabalarda tuproqshunoslik fanining rivojlanishi, tuproqning suvi, issiqlik, havo xossalari, tuproq kaloidlari, tuproq hosil bo`lish jarayoni, tuproqlarning tarqalishi, xususiyatlari, morfologik belgilari, sho`rlanishi, eroziyasi, tuproq bonitrovkasi, tuproq kartalari, tuproq muxofazasi, tuproq unumdorligini oshirish chora tadbirlari va tuproqlarning sifatini baholash ko`rsatkichlari bilim va ko`nikmasini hosil qilishdan iborat. Fanning vazifasi - nazariy bilimlar, amaliy ko`nikmalar, O`zbekistonda tarqalgan tuproqlarning hosil bo`lishi, morfologik belgilari, tuproqning fizik-mexanik xossalari, tuproqning organik qismining shakllanishi, sho`rlanish darajalari, tuproq eroziyasini hosil qiluvchi omillar, unumdorligini oshirish chora-tadbirlari, yutuqlarini ishlab chiqarishda qo`llay olish haqidagi uslubiy yondoshuv va ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.</p>
8	Landshaftshunoslik	<p>Fanning mazmuni</p> <p>"Landshaftshunoslik" fani tabiiy geografiyaning muhim bir qismi sifatida kishilik jamiyatini amaliy talablariga bog`liq holda shakllanmoqda va rivojlanib bormoqda. U inson bilan tabiat o`rtasidagi o`zaro aloqalar samaradorligining oshirishning ilmiy asoslarini yaratish va madaniy landshaftlarni barpo qilishining qoida va usullarini ishlab chiqish bilan shug`ullanadi. Landshaft haqidagi ta`limot esa geografiya fanining muhim qismi sifatida tabiiy geografiyaning amaliy hayotga kirib borishida ilmiy nazariy asos bo`lib xizmat qiladi. "Landshaftshunoslik" fani er kurrasining ustki geografik qobig`ini tuzilishi, tarkibi hususiyatlari, rivojlanishi, tabiiy va antropogen omillar ta`sirida o`zgarishi, ulardan xalq xo`jaligida samarali foydalanish usullarini o`rganadi. Fanning vazifasi - landshaftshunoslik g`oyalarining shakllanishi va taraqqiyot tarixi, landshaftshunoslikning ilmiy nazariy asoslari, landshaftlarning strukturasi, landshaftlarning kelib chiqishi, dinamikasi, rivojlanishi va maxsus faoliyati, antropogen landshaftlar, ularning hosil bo`lishi va tasniflari, amaliy landshaftshunoslik, tabiiy resurslardan foydalanish va tabiatni muhofaza qilishning landshaft-ekologik prinsiplari va uslublarini, turli zonalar, viloyatlar, tumanlar tabiiy resurslaridan xar tomonlama foydalanish, ularni muhofaza qilish va tiklash masalalarini geografik komplekslar holda o`rganishdir.</p>
9	Mevachilik va sabzavotchilik	<p>Fanning mazmuni.</p> <p>Mevachilik va sabzavotchilik fanni bakalavrlar tayorlashda o`rni va ahamiyati shulardan iboratki, mevachilik va sabzavotchilikni ahamiyati, kelib chiqishi va tarqalishi tarixi, hozirgi xolati va rivojlanish istiqbolli to`g`ridagi bilimini berishdan iborat. Meva ekinlarini ahamiyati, kimyoviy tarkibi, kelib chikishi va tarqalish tarixi, hozirgi xolati va rivojlanish istiqboli xamda tashqi muxit omillariga bo`lgan talabi tog`risidagi va mevachilikka yangi kirib kelgan intensiv mevani navlarini kupaytirishga urgatish bo`yicha ilmiy-amaliy ko`nikmalar hosil qilishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi - talabalarni tirik materiyaning belgilari, organik dunyoning birligi va xilma-xilligi, yerda hayotning paydo bo`lishi va rivojlanish tarixi, o`zgaruvchanlikning genetik qonuniyatlari, tur ichida va uzoq shakllarni duragaylashda biologik qonuniyatlar kabi ko`plab nazariy bilimlar, amaliy ko`nikmalar, biologik hodisa va genetik jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyo qarashlarini</p>

Magistratuta bosqichida

t/r Fanning nomi	Fan haqida qisqacha ma`lumot
-------------------------	-------------------------------------

1. Meliorativ
tuproqshunoslik
va dehqonchilik

Meliorativ tuproqshunoslik fani meliorativ holati qoniqarsiz erlarning xossalari, ularni boshqarish, agro va gidromeliorativ tadbirlarni ilmiy asoslash, etishtiriladigan ekinlarni tanlash, joylashtirishva agrotexnologik tadbirlarni (tuproqqa ishlov berish, ekish, o`g`itlash, sug`rishi, va h.k) erlarning holatini inobatga olib tabaqalashtirgan holda ishlab chiqarish amaliyotida qo`llashning ilmiy asoslarini o`rganadi.